

Buzoqqa sig'inish



09:00 / 12.02.2023 1731

Bani Isroil Misrda ancha vaqt mushriklar bilan birga yashagan edi. Qibtiylar Misrda juda ko'p narsaga sig'inishlarini Bani Isroil o'z ko'zlari bilan ko'radilar. Shu bois Isroil farzandlari asta-sekin shirkdan nafratlanmay qo'yidilar. Xuddi eski uy devorlaridan suv sizib kirganidek ular qalbiga ham shirk muhabbati uy qura boshladi. Ozgina fursat topilishi bilan oq misli pastlikka yugurayotgan suvdek shirkka qarab chopishardi. Qalblar buzilgan, xohish-istaklar noto'g'ri yo'nalishga burilgan edi. Haq yo'lni ko'ra-bila turib tashlab ketardilar. Zalolatga mudom quchoq ochardilar. Bani Isroil Fir'avn ta'qibidan qochib Qizil dengizdan o'tib ketdi. «So'ng ular butlarga sig'inib turgan bir qavm oldidan o'tdilar va: «Ey Muso, bizlarga ham ularning ilohlari kabi xudo qilib (yasab) ber», dedilar».

Ularning bu noo'rin tilaklaridan Musoning jahli chiqdi.

- «Albatta sizlar bilmaydigan qavmdirsizlar!».

Vo ajab! Bu ne zulm?! Axir Alloh hali dunyoda hech kimga bermagan ne'matlarini sizlarga bermadi-mi?

Axir Alloh taolo ularni butun olamlardan afzal qilib qo'ymadimi?!

Muso dedi:

- «Men, sizlarni butun olamlardan afzal qilib qo'ygan Allohdan o'zgani (ya'ni jonsiz butni) sizlarga xudo qilib beramanmi?».

Muso Parvardigori bilan so'zlashmoq uchun Tur tog'iga qarab ketdi. Bani Isroil

Muso ketganidan so'ng shaytonning ovi va shirkning o'ljasiga aylandi. Ularning orasida Somiriy degan bir badbaxt kimsa ham yashardi.

«So'ng (Somiriy o'sha zeb-ziynatlarni olovda eritib, xuddi tirik buzoq kabi) ovozi bor haykal-buzoq (yasab) chiqarib berdi. So'ng (Somiriy va uning sheriklari): «Sizlarning ham, Musoning ham ilohi shu edi, (Muso) unutib, (uni boshqa yerdan izlagani ketibdi)», dedilar».

Bani Isroil qavmi mana shu buzoq bilan fitnalandi. Ular ko'r va karlarcha buzoqqa sig'ina boshladilar. «Axir uning o'zlariga biron so'z qaytara olmayotganini va biron ziyon ham, foyda ham yetkazishga qodir emasligini ko'rmaydilmirmi?! Axir ular o'sha (buzoq) o'zlariga so'zlay olmasligini va hidoyat ham qila olmasligini bilmadilmirmi?!

Holbuki (buzoqqa sig'inishlaridan) ilgari Horun ularni qattiq man' qilib:

- «Ey qavmim, sizlar bu bilan faqat imtihon qilindinglar xolos, (bas, u buzoqqa sig'inmanglar!) Shak-shubha yo'qki, sizlarning. Parvardigoringiz yolg'iz Rahmon Marhamatli Allohdir. Bas, menga ergashinglar va amrimga itoat qilinglar!»- degandi».

Lekin Somiriyning sehri bilan aldanib, qalbi buzoq muhabbatiga yo'g'rilgan Bani Isroil bu zalolatidan qaytmadi.

«Ular: «To bizlarga Muso qaytmagunicha, unga (shu butga) ibodat qilib-sig'inishdan hargiz ajralmaymiz», degan edilar».

Abul Hasan Ali Hasan an-Nadaviy
Tarjimon Anvar Ahmad